

**TALABALIK DAVRIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHIDA QADIRIYATLAR YO‘NALGANLIGI O‘RTASIDAGI
INTERKORRELYASION ALAQADARLIK**

Botirova Yorqinoy Dilshod qizi
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli
Kadrlarni tayyorlash instituti

ANNOTATSIYA

Psixologik madaniyat talabaning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, emotsiyalarni nazorat qilish, ijtimoiy muloqotda samarali ishtirok etish, stressni bartaraf etish, shuningdek, shaxsiy va kasbiy o‘shishga intilish kabi sifatlarini qamrab oladi. Bunday madaniyatga ega bo‘lgan shaxs nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zi: kasbiy o‘shish, madaniyat, individual rivojlanish, taraqqiyot

Qadriyatlarga yo‘naltirilganlik esa talabaning ichki motivatsion tizimi, hayotiy ideallari va jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy-me‘yoriy tamoyillarga munosabatini ifodalaydi. U insonning ijtimoiy xulq-atvori, kasbiy yo‘nalishi va shaxsiy qarorlarida asosiy mezon vazifasini bajaradi. Talabalik davrida qadriyatlar tizimi ko‘pincha qayta shakllanadi, yangilanadi va ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Psixologik madaniyat va qadriyatlarga yo‘naltirilganlik o‘rtasida kuchli interkorrelyatsion aloqadorlik mavjud. Yuqori darajadagi psixologik madaniyatga ega talaba odatda barqaror, ongli va ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar tizimiga tayanadi. Bunday talabalar ilm-fan, ma‘naviyat, kasbiy o‘shish, oila va jamiyat qadriyatlarini yuqori darajada qadrlaydi. Aksincha, psixologik madaniyati past bo‘lgan shaxslarda qadriyatlar tizimi ko‘pincha yuzaki, beqaror va individual manfaatlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Bu jarayonning mexanizmlarini kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlar orqali tushuntirish mumkin. Kognitiv jihatdan talaba o‘zini va boshqalarni anglash orqali qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantiradi. Emotsional jihatdan esa ijobiy

psixologik muhit va hissiy barqarorlik qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytiradi. Xulqiy jihatdan esa psixologik madaniyati yuqori shaxs o'z qadriyatlarini nafaqat anglaydi, balki ularni amaliy faoliyatida ham ifodalaydi.

Shunday qilib, talabalik davrida psixologik madaniyat va qadriyatlarga yo'naltirilganlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini mustahkamlaydi va rivojlantiradi. Bu esa shaxsning barkamol rivojlanishi va jamiyatda faol ijtimoiy pozitsiyani egallashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biz tadqiqot olib borish jarayonida talaba-yoshlarning hayotidagi va faoliyatidagi qadriyatlari yo'nalganligini aniqlash imkoniyatini beruvchi M.Rokich metodikasidan foydalandik. Bu metodikani o'tkazishdan maqsad talaba-yoshlarda qadriyatlar yo'nalganligini namoyon etadigan maqsadli va vositali qadriyatlarni aniqlashdan iborat.

terminal qadriyatlar - individual hayot kechirishning pirovard maqsadi unga intilish uchun arziydi, degan e'tiqoddan iborat;

instrumental qadriyatlar - shaxs harakatlarining qandaydir tarzi yoki uning xususiyati har qanday vaziyatda ham ustun turadi, degan e'tiqoddan iborat. Terminal qadriyatlar - individual hayot kechirishning pirovard maqsadi unga intilish uchun arziydi, degan e'tiqoddan iborat bo'lib, ularga: ijodiy hayot, kasb mahoratini egallash, sog'lik, faollik, tetiklik, qiziqarli ish, tabiat va san'at go'zalligi, muhabbat, sevgi, milliy qadriyatlar mavjudligi, sodiq do'stlarning mavjudligi, baxtli onalik va otalik, atrofdegilarning hurmati, yoqimli ko'ngilxushlik, ijtimoiy mavqe, oiladagi munosabatlarning ishonchliligi va mustahkamligi, o'zgalar baxti, moddiy qiyinchiliklarning yo'qligi, baxtiyor oilaviy hayot, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, uyning tinchligi, birligi, xotirjamligi kabilar kiradi.

Instrumental qadriyatlar - shaxs harakatlarining qandaydir tarzi yoki uning xususiyati har qanday vaziyatda ham ustun turadi, degan e'tiqoddan iborat bo'lib, ularga: betartiblik, tarbiyalanganlik, yuksak talab, xushvaqtilik, ishchanlik, intizomlilik, mustaqillik, o'zidagi va boshqalardagi kamchiliklarga murosasizlik, ma'lumotlilik, mas'uliyatlilik, rasionallik, o'z-o'zini idora etish, o'z qarashlarida qat'iy tura bilish, qat'iy iroda, chidamlilik, qarashlar tengligi, rostgo'ylik, ishlardagi samaradorlik, sezgirlik kabilar kiradi. Qadriyatlarning bu tarzda bo'lish: "maqsadli-qadriyatlar" va "vositali- qadriyatlar" kabi toifalarga ajratishga asoslanadi.

Xulosa

Psixologik madaniyat va qadiriylar yoʻnalganligi oʻrtasidagi interkorrelyasion alaqadarlikni aniqlashda mualliflik soʻrovnomasi va O.I. Motkova tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsning psixologik madaniyati” metodikasi yordamida biz talabalarda psixologik madaniyat shakllanishining asosiy komponentlarini aniqladik bu komponentlar qadiriylar tizimi bilan interkorrelyasion alaqadarlikni aniqlashda asos boʻlib xizmat qiladi. Psixologik madaniyatning shakllanishi talabaning nafaqat taʼlim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi hayotiy yoʻnalishini ham belgilab beradi. Psixologik madaniyat bir qator tarkibiy komponentlardan iborat boʻlib, ular oʻzaro uygʻunlikda shaxsning komil inson sifatida kamol topishini taʼminlaydi. Psixologik madaniyatning asosi bilimlilikdir. Talaba oʻzini va atrofdagi voqelikni anglash, turli psixologik jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun maʼlum darajada bilimga ega boʻlishi zarur. Psixologiya fanidan, shaxs taraqqiyotidan, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning qonuniyatlaridan xabardor boʻlish talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, muammoli vaziyatlarda toʻgʻri yoʻl topishga yordam beradi.

Refleksivlik — bu insonning oʻz xatti-harakatlarini, qarorlarini va ichki kechinmalarini tahlil qila olish qobiliyatidir. Talabalarda refleksivlikning rivojlanishi ularga oʻz xatolaridan toʻgʻri xulosa chiqarish, oʻzini baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Bu jihat oʻquv jarayonida muvaffaqiyat qozonish, shuningdek, shaxsiy rivojlanishning muhim koʻrsatkichidir.

Psixologik madaniyatning muhim elementi sifatida oʻzini boshqarish koʻnikmalari talabaning hissiyotlarini, vaqtini va xulqini tartibga solish qobiliyatini anglatadi. Stressli vaziyatlarda oʻzini yoʻqotmaslik, sabrli boʻlish, maqsad sari intilishni davom ettirish oʻzini boshqarish darajasiga bogʻliqdir. Shu bois, bu koʻnikma nafaqat oʻqishda, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyat kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Васягина Н. Н. Человек как субъект социокультурного пространства // Педагогическое образование в России. 2013. №4. С. 7-14.
2. Выготский Л. С. Педагогическая психология. М., 1991.
3. Xaydarov B. Ijtimoiy psixologiya va yoshlar masalalari. Toshkent: Fan. 2016
4. Хапаева Д.Р. Готическое общество: морфология кошмара/Москва: Новое литературное обозрение, 2007. – 149 с.
5. Xalilov J. Talabalarining psixologik tayyorgarligi. Toshkent: Universitet. 2022



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING